

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI



MUHAMMAD AL-XORAZMIY
NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
UNIVERSITETI

MINISTRY FOR DEVELOPMENT OF
INFORMATION TECHNOLOGIES
AND COMMUNICATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TASHKENT UNIVERSITY OF
INFORMATION TECHNOLOGIES
NAMED AFTER MUHAMMAD
AL-KHWARIZMI

100084, Toshkent sh, Amir Temur ko'chasi, 108-uy.

Tel.:(+998) 71-238-64-89, 71-238-64-15,

E-mail: info@tuit.uz

« 30 » 09 2022-yil

3199 / 6-01 -son

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va O'rta maxsus ta'lim
vazirligiga**

Vazirlikning 2022-yil 23-sentabrdagi 2/33-2-son topshiriq xati ijrosi yuzasidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2022-yildan hozirgi davrga qadar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'tkazilgan Hay'at Kengashi va videoselektor yig'ilishi bayonlari hamda vazirlik Apparati Kengashi bayonlarida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni yubormoqdamiz.

Ilova: 19 bet.

**Yoshlar masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha birinchi prorektor**

D.Yaxshibayev

Ijrochi: L.Jo'rayev
Tel: 712386562

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU da O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil davomida qabul qilingan Hay'at Kengashi qarorlarida berilgan topshiriqlar ijrosi bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida

MA'LUMOT

№	Hujjatdagi bandi va belgilangan vazifalar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar / Lavozimi, F.I.Sh.	Amalga oshirilgan ishlar
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining joriy yil 11-iyun kuni "Iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish chora-tadbirlari"ga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda oliy ta'lim sohasiga oid berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 6/1-sonli Hay'at qarori				
1.	<u>2.2-band.</u> Elektr-energiyadan samarali foydalanish, uni iqtisod qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	doimiy	Bosh muxandis M.Nazarov	<p>2.2- band bo'yicha.</p> <p>1. Barcha ishchi xodimlar va talabalarga energiya resurslarini tejash hamda ulardan maqsadli foydalanish ma'daniyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borilmoqda.</p> <p>2. Elektr energiyasini tejashga qaratilgan motivatsiyasini oshirish ular bilan xonalardagi elektr jihozlarini kerakli vaqtda yoqish va o'chirish, foydalanilmayotgan ish rejimidagi jihozlarning ortiqcha elektr energiyasini sarflashi yuzasidan ma'lumotlar berib borilmoqda.</p> <p>3. Universitet kompyuterlari monitorini 5 daqiqadan so'ng "uyqu rejimi"ga o'tishini to'g'ri sozlash. Kompyuterdan foydalanish zarurati bo'lmagan vaqtda uni o'chirish choralari ko'rish yuzasidan tushunchalar berib borilmoqda;</p> <p>5. Universitet xonalardagi isitish va sovutish (ventilyatsiya va konditsioner) tizimlarini jadval asosida ya'ni, ertalab soat 10-00 dan kechki soat 17-00 gacha ishlatish yuzasidan tushuntirishlar olib borilmoqda.</p>
2.	<u>2.3-band.</u> mazkur yo'nalishda mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari elektr-energiyadan samarali foydalanish, uni iqtisod qilish, muqobil energiya vositalarini tatbiq etishga qaratilgan ilmiy loyihalarni ko'paytirish chorasini ko'rish.	doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor K.Tashev	<p>2.3-band bo'yicha.</p> <p>Iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish yuzasidan elektr-energiyadan samarali foydalanish, uni iqtisod qilish, muqobil energiya vositalarini tatbiq etishga qaratilgan ilmiy loyihalarni tayyorlash bo'yicha va Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etish yuzasidan Univeritat professor</p>

				o'qituvchilariga ma'lumotlar taqdim etilgan. elektr-energiyadan samarali foydalanish, uni iqtisod qilish, muqobil energiya vositalarini tatbiq etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan va Innovatsion rivojlanish vazirligiga yuborilgan.
3.	2.4-band. 2022-yil yakuniga qadar xar bir oliy ta'lim muassasalarida kamida bittadan talabalar turar joyi va undagi suv isitish tizimlari hamda o'quv majmuasini muqobil energiya vositalaridan foydalanish chorasini ko'rish.	31.12.2022-y.	Bosh muxandis M.Nazarov	2.4-band bo'yicha. 2022-yil yakuniga qadar universitetning Amir Temur ko'chasi 119 o'y manzilidagi 4-son TTJda 30 dona quyosh suv isitish tizimini o'rnatish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, hozirgi kunda Amir Temur ko'chasi 108 o'y manzilidagi E-o'quv binosida quvvati 150 kVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalarini sotib olish va o'rnatish bo'yicha eng yaxshi taklifni tanlash uchun xarid komissiyasi dalolatnomasi asosida maqbul tashkilot tanlanib shartnoma (ilova qilinadi) rasmiylashtirildi va o'rnatish ishlari olib boshlandi;
4.	2.5-band. muassasalarda mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish.	doimiy	Texnik foydalanish va xo'jalik bo'lim boshlig'i A.Suyunov	2.5-band bo'yicha. Universitet hududidagi barcha yer maydonlari obodonlashtirilgan va ko'kalamzorlashtirilgan mavsumiy hamda ko'p yillik gul ko'chatlari hamda mevali va manzarali daraxtlar ekilib ularga shakl berilgan. Universitet hududida o'rnatiladigan quyosh suv isitish tizimini hamda quyosh fotoelektr stansiyalari bino tom qismiga o'rnatilishi mo'ljallangan. Hududda bush turgan foydalanilmayotgan yer maydonlari mavjud emas.
5.	2.6-band. korrupsiya holatlarining oldini olish hamda unga yo'l qo'ymaslik, 2022/2023 o'quv yili uchun o'tkaziladigan shaffof tarzda o'tkazilishini ta'minlash.	01.09.2022-y.	Korrupsiyaga qarshi kurashish "KOMPLAENS-NAZORAT" tizimi boshqarish bo'limi boshlig'i M.Umurzoqov	3.2-band bo'yicha. Korrupsiya holatlarini oldini olish hamda uni bartaraf etish maqsadida rejali ishlar amalga oshirilmoqda, xususan 2022/2023-o'quv yilining sentabr oyi korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi deb e'lon qilindi va huquqiy soat darslarida Universitetning yuridik xizmati bo'limi xodimlari bilan targ'ibot ishlari olib borildi. rasmiy kanallarda video targ'ibotlar joylashtirilib borilmoqda.
6.	2.7-band. 2022/2023 o'quv yilida talabalar o'qishini ko'chirish, magistraturaga qabul jarayonlarida kutilayotgan o'zgarishlar bo'yicha ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni tashkillashtirish.	10.08.2022-y.	Qabul komissiyasi mas'ul kotibi A.Shaxobiddinov	2.7-band bo'yicha. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2022-yil, 15- iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-279-son qarori bilan Magistraturada quyidagi o'zgarishlar bo'ladi:

				<p>magistraturaga qabul qilishda bakalavriat diplom bali o'rtacha ko'rsatkichi, hamda xorijiy tilni bilish haqidagi sertifikat asosida amalga oshiriladi. Mutaxassislik fanidan imtihon o'tkazilmaydi;</p> <p>avgust oyidagi qabul – navbatdagi o'quv yili uchun tasdiqlangan davlat granti va to'lov-kontrakt asosidagi kvotalar uchun;</p> <p>yanvar oyidagi qabul – yozda to'lmay qolgan o'rinlar hamda Davlat qabul komissiyasi tasdiqlangan kontrakt asosidagi qo'shimcha kvotalar uchun bo'ladi;</p> <p>davlat OTMLari magistraturasiga o'qishga kirgan barcha xotin-qizlarning to'lov-kontrakt miqdorlari davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.</p>
7.	2.8-band. uch kun muddatda 2022-yilda muassasa obyektlarida muqobil energiya manbalarini qo'llash yuzasidan kafolat xatlarini taqdim etsin.	13.06.2022-y.	Bosh muxandis M.Nazarov	<p>2.8 band bo'yicha. Universitetda muqobil energiya manbalarini qo'llash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga kafolat xati (ilova qilinadi) taqdim etilgan.</p>
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining joriy yil 11-iyun kuni "Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilarining xorijiy tilni bilish bo'yicha xalqaro sertifikatlarga ega bo'lish ko'rsatkichlarining tahlili to'g'risida"gi 6/2-sonli Hay'at qarori				
8.	3.2-band. uch kun muddatda S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lmagan chet tili o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirish va ular bilan uchrashgan holda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini yana bir bor tushuntirish.	13.06.2022-y.	Chet tillari kafedra mudiri A.Sharipova	<p>3.2-band bo'yicha. C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lmagan chet tili o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirildi va ular bilan uchrashgan holda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini yana bir bor tushuntirildi;</p>
9.	3.3-band. S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega tajribali o'qituvchilar salohiyatidan samarali foydalangan holda mahorat darslari, seminar-treninglar hamda maxsus kurslar tashkil etish va ularning mehnatlarini munosib rag'batlantirish.	doimiy	Chet tillari kafedra mudiri A.Sharipova	<p>3.3-band bo'yicha. C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega tajribali o'qituvchilar salohiyatidan samarali foydalangan holda mahorat darslari, seminar-treninglar tashkil etildi.</p>
10.	3.4-band. joriy yilning sentyabr oyiga qadar oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha chet tili o'qituvchilarining S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishlari uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish va haftalik monitoringini olib borish.	01.09.2022-y.	Chet tillari kafedra mudiri A.Sharipova	<p>3.4-band bo'yicha. Joriy yilning sentyabr oyiga qadar universitetimizda faoliyat yuritayotgan chet tili o'qituvchilarining 30 nafaridan 23 nafari C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega.</p>

11.	3.5-band. amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har oyning yakuni bo'yicha vazirlikning Malaka oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish boshqarmasi (F.Esanboboyev)ga taqdim etilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.	har oy yakunida	Chet tillari kafedra mudiri A.Sharipova	3.5-band bo'yicha. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har oyning yakuni bo'yicha vazirlikning Malaka oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish boshqarmasi (F.Esanboboyev)ga taqdim etilmoqda.(malaka@edu.uz)
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining joriy yil 11-iyun kuni "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarini ochish to'g'risida"gi 6/3-sonli Hay'at qarori				
12.	2.2-band. Ochilayotgan oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risidagi Nizom" talablari asosida samarali faoliyatini ta'minlash, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining o'z muddatida himoya qilinishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Belgilangan muddatlarda	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi N.Ulyanova	2.2-band bo'yicha. Ma'lumot uchun qabul qilindi. 28.06.2022 yil. 615-sonli buyruq Izoh:Qarorda keltirilgan Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida yangi ixtisosliklarni ochish bo'yicha keltirilgan ro'yxatda bizning universitet mavjud emas
13.	2.3-band. Tashkilotlar huzurida tuzilgan Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash to'g'risidagi Nizom", "Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi Nizom", "Malakaviy imtihonlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom", "Ekspert kengashi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq ochilayotgan oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining faoliyatini boshqarish vazifalari yuklatilsin.	Belgilangan muddatlarda	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi N.Ulyanova	2.3-band bo'yicha. Ma'lumot uchun qabul qilindi. 28.06.2022 yil. 615-sonli buyruq Izoh:Qarorda keltirilgan Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida yangi ixtisosliklarni ochish bo'yicha keltirilgan ro'yxatda bizning universitet mavjud emas
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining joriy yil 14-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 7/1-sonli Hay'at qarori				
14.	3-band. Vazirlik tizimidagi bo'linmalar, tashkilotlar, hududiy boshqarmalar, oliy ta'lim muassasalari va filiallar rahbarlari 3 kun muddatda o'z ish rejasini vazirlikning ushbu qaror bilan tasdiqlangan ish rejasiga muvofiqshartirish hamda har oylik shaxsiy ish rejasini tasdiqlash amaliyotini davom ettirsin.	17.07.2022-y. har oyda	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev	3-band bo'yicha. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2022-yil II-yarim yilligi ish rejasini universitetning ichki buyrug'i bilan tasdiqlangan. Asos: Universitetning 2022-yil 744-son buyrug'i.
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining joriy yil 14-iyuldagi "Oliy ta'lim muassasalarida 2022-yilning ikkinchi choragida ijro intizomi holati to'g'risida"gi 7/4-sonli Hay'at qarori				
15.	4.2-band. Bir hafta muddatda Ijro.gov.uz tizimida ijro intizomini mustahkamlash va nazorat qilish tizimini kuchaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish.	21.07.2022-y.	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev	4.2-band bo'yicha. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATUda Ijro intizomini mustahkamlash va nazorat qilish tizimini kuchaytirish bo'yicha chora tadbir ishlab chiqilgan (ilova qilinadi). Asos: Universitetning 2022-yil 28-iyuldagi ichki buyrug'i hamda 2022-yil 22-avgustdagi chora-tadbirlar rejasini.

16.	4.3-band. Muntazam ravishda ijro intizomini ta'minlashda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tanqidiy muhokama qilib borish va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash vazifalari yuklansin.	doimiy	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev	4.3-band bo'yicha. Universitetning ijro intizomiga mas'ul xodimlar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qilinib, bunday holatlarni takrorlanishini oldini olish choralari ko'rib kelinmoqda. Asos: Universitetning 2022-yil 28-iyuldagi ichki buyrug'i. Universitetning 2022-yil 30-avgustdagi Yeg'ilish bayoni.
-----	---	--------	--	---

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU da O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil davomida qabul qilingan Apparat Kengashi yig'ilishlarida berilgan topshiriqlar ijrosi bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida

MA'LUMOT

№	Hujjatdagi bandi va belgilangan vazifalar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar / Lavozimi, F.I.Sh.	Amalga oshirilgan ishlar
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Apparati Kengashining 2022-yil 10-maydagi 15-sonli bayoni				
17.	4.2-band. Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joylarini qo'rish yuzasidan tadbirkorlarni jalb qilish bo'yicha 3 kun ichida tegishli choralarni belgilasin.	13.05.2022-y.	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	4.2-band bo'yicha. Keyingi o'quv yiliga talabalar turar joylarini tayyorlash hamda reja asosida xususiy-sheriklik shartlari asosida talabalar turar joylarini qurish maqsadida 2022 yil 1-iyul sanasidan Amir Temur ko'chasi 108-uy manzilidagi 1-son TTJ 3 ta 9-qavatli bino fasad qismida ta'mirlash ishlari olib boriladi hamda universitet hududida DHSh bo'yicha talabalar turar joyi qurish yuzasidan tadbirkorlar bilan muzokaralar olib borilmoqda;
18.	4.3-band. Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berishni tizimli tashkil etish choralar ko'rish.	doimiy	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	4.3-band bo'yicha. Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga ularning arizalari, ijaraga beruvchi va talaba o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan ma'naviyat bo'limi tomonidan tuzilgan bayonnomaga asosan ro'yxat shakillantirilib buxgalteriyaga berilgandan so'ng xar o'ning 15-sanasidan kechiktirmagan muddatda talabalarga o'rnatilgan tartibda budget mablag'lari hisobidan to'lab berilmoqda;
19.	4.4-band. Tadbirkorlar tomonidan taklif etiladigan bo'sh turgan binolarni tegishli tashkilotlarning xulosasi bo'lmagan holda talabalar turar joyiga aylantirmaslik.	doimiy	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	4.4-band bo'yicha. Tadbirkorlar tomonidan taklif etiladigan bo'sh turgan binolarni tegishli tashkilotlarning xulosasi bo'lmagan

				holda talabalar turar joyiga aylantirmaslik bo'yicha o'rnatilgan taribda tegishli ishlar olib borilmoqda;
20.	4.5-band. Byudjet mablag'laridan foydalanish mas'uliyati, shuningdek, bu boradagi ishlarni olib borishda javobgarlik birinchi rektor va direktorlar zimmasida ekanligi qayd etilsin.	doimiy	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	4.5-band bo'yicha. Universitet rektori moliyaviy-iqtisodiy masalalar bilan shaxsan shug'illanadi, uning imzosisiz hech qanday moliyaviy operatsiya amalga oshmaydi, UzASBO DMda universitet rahbarining o'z login paroli mavjud bo'lib, elektron raqamli imzo orqali tasdiqlanadigan har bir moliyaviy xujjat rektor nazorati ostida;
21.	4.6-band. Har bir tyutorlar faoliyati bilan shug'ullanish, ular uchun kurslar tashkil etish, kasbiy faoliyat ko'rsatgichlarini oshirish choralari ko'rsin.	doimiy	Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor D.Yaxshiboyev	4.6-band bo'yicha. Har bir tyutorlar faoliyati bilan shug'ullanib, ularning faoliyati monitoring qilindi, ular uchun kurslar tashkil etib, kasbiy faoliyat ko'rsatgichlarini oshirish choralari ko'rilmogda.
22.	6.2-band. Ikki hafta muddatda yangi o'quv yilida qabul qilinadigan talabalar uchun to'lov-kontrakt mablag'lari miqdorini Kuzatuv kengashi qarorlari orqali tasdiqlash hamda bu haqda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish choralari ko'rish.	24.05.2022-y.	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	6.2-band bo'yicha. Yangi 2022/2023-o'quv yilida qabul qilinadigan talabalar uchun to'lov-kontrakt mablag'lari miqdori universitet Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2022-yil 16-iyundagi 3-son bayoni orqali tasdiqlangan va universitetning rasmiy sayti (www.tuit.uz) da e'lon qilingan;
23.	6.3-band. Bir hafta muddatda daromad va xarajat parametrlarining Kuzatuv Kengashlari tomonidan tasdiqlanishini ta'minlash.	17.05.2022-y.	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	6.3-band bo'yicha. Universitetning daromad va xarajat parametrlari Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2022-yil 28-fevraldagi 1a-son bayoni orqali tasdiqlangan;
24.	6.4-band. O'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi va oliy ta'lim muassasasining uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturlarini bir hafta muddatda tasdiqlash choralari ko'rsin.	17.05.2022-y.	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	6.4-band bo'yicha. Universitetning o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi, uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturlari Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2022-yil 28-fevraldagi 1a-son bayoni orqali tasdiqlangan;
25.	11.2-band. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalari orqali kelib tushgan murojaatlarni qisqa muddatlarda har tomonlama sinchiklab ko'rib chiqib, qonun doirasida hal etilishini ta'minlash hamda nazorat ishlarini kuchaytirsin.	doimiy	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev	11.2-band bo'yicha. Universitetda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalari orqali kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qisqa muddatlarda va har tomonlama o'rganib chiqib Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonuniga asosan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi va mas'ul ijrochilar tomonidan ko'rib chiqilib qonun doirasida hal etib kelinmoqda.

				Asos: Universitetning 2022-yil 6-iyundagi ichki buyrug'i
26.	11.3-band. Murojaatlar bilan ishlovchi xodimni bevosita mas'ul etib belgilanishiga butunlay chek qo'ygan holda, arizada ko'tarilgan masalalarni tegishli tarkibiy bo'linmalarning mutaxassislari tomonidan ijro etilishini qat'iy ta'minlasin;	doimiy	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev	11.3-band bo'yicha. Murojaatlar universitetga kelib tushgan kundan boshlab Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatalari bilan ishlash bo'limi xodimlari va murojaatda ko'rsatilgan masala bo'yicha mas'ul xodimlar bilan birga o'rganish o'tkazib ko'tarilgan masalaning ijrosini ta'minlash tashkil etilgan. Asos: Universitetning 2022-yil 3-iyundagi 522-son ichki buyrug'i.
27.	11.4-band. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsiy qabul qilishga, murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning amaliy yechimlarini topishga alohida e'tibor qaratish.	doimiy	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev	11.4-band bo'yicha. Universitetda shaxsan rektor tomonidan haftaning har chorshanba kunlari Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari qabul qilinib va murojaatlardagi ko'tarilgan muammolarni qonun doirasida joyida hal qilinmoqda. Asos: Universitetning 2022-yil 3-iyundagi 522-son ichki buyrug'i.
28.	11.5-band. Jamoatchilik bilan ishlashning ta'sirchan mexanizmlarini yo'lga qo'yish orqali tashkilotning fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish.	doimiy	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i L.Jo'rayev	11.5-band bo'yicha. Universitetda jamoatchilik bilan ishlashning ta'sirchan mexanizmlarini oshirish uchun Ishga qabul qilish jarayonini nazorat qilish bo'yicha ishchi guruh (2021-yil 10 avgustdagi to'g'risidagi 790-son buyruq) va Universitetning o'qov-axloq komissiyasi (2022-yil 23-fevraldagi 151-son buyruq) tashkil etilgan, shuningdek Universitetda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha doimiy ishchi guruh tarkibi tasdiqlangan(2021-yil 6-dekabrda 1299-sonli buyruq) Asos: Universitetning 2022-yil 3-iyundagi 522-son ichki buyrug'i.
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Apparati Kengashining 2022-yil 23-maydagi 17-sonli bayoni				
29.	15-band. Xorijiy xizmat safarlarini tashkil qilishda tasarrufdagi oliy ta'lim muassasalari va filiallarda quyidagi tartibga qat'iy rioya qilinsin: - oliy ta'lim muassasalari vakillarining chet davlatlarga xizmat safarlarini amalga oshirish munosabati bilan aniq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi xizmat safari rejasi ishlab chiqilishi va OTM rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi;	doimiy	Xalqaro Hamkorlik, xalqaro reytinglar va strategik rivojlantirish bo'limi boshlig'i I.Yusupov	15-band bo'yicha. Chet davlatlarga xizmat safarlarini amalga oshirishda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi dastur ishlab chiqilgan. -Ushbu ishlab chiqilgan dastur rejalashtirilayotgan safar maqsadi, uning muddati, ikki tomon bilan aniq belgilangan kalendar reja asosida belgilangan uchrashuvlar, tadbirlar va

	<p>- xizmat safarining rejasida safarning maqsadi, xorijda bo'lish muddati, rejalashtirilgan uchrashuvlar, tadbirlar va muzokaralar, hal etiladigan yoki o'rganiladigan mavzular ro'yxati, xizmat safarini moliyalashtirish manbalari, maqsadga muvofiqligi, amaliy ahamiyati va kutilayotgan natijalari aks ettiriladi;</p> <p>- xizmat safarining yakunlari bo'yicha hisobot tayyorlash va unda rejada ko'rsatilgan tadbirlarning bajarilganligi, muzokaralarning natijalari, erishilgan kelishuvlar, xulosalar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan takliflar ko'rsatiladi.</p> <p>Shuningdek: Oliy ta'lim muassasasi rahbarlarining xorijiy xizmat safarlari yuzasidan oliy ta'lim muassasasi birinchi bandda ko'rsatilgan barcha hujjatlar bilan birgalikda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga xorijiy xizmat safar belgilangan kundan 20 kun oldin murojaat qilinadi va xizmat safari to'g'risida axborot beriladi.</p> <p>Shuningdek, OTM rahbarlarining xorijiy safarlarini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Prezident farmonining 5-bandida keltirilgan talablarga rioya qilish, xususan, oliy ta'lim muassasasi rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga qiladigan xizmat safari oldidan asosiy ma'lumotlar, jumladan, mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi OTM veb-saytiga joylashtirilishi, safar natijalari bo'yicha hisobot oliy ta'lim muassasasining Ilmiy Kengashida ko'rib chiqish talabi belgilab qo'yilsin.</p>			<p>muzokaralar, moliyalashtirish manbalari, uchrashuvning amaliy ahamiyati o'z ichiga olgan.</p> <p>-Dasturga muvofiq xizmat safarining yakuniga ko'ra bo'yicha hisobot tayyorlash va unda rejada ko'rsatilgan tadbirlarning bajarilganligi, muzokaralarning natijalari, universitet faoliyatiga tadbir etish bo'yicha universitet kengashida hisobot beriladi va muhokama etiladi.</p> <p>-Universitet rahbarining xorijiy xizmat safarlari yuzasidan oliy ta'lim muassasasi birinchi bandda ko'rsatilgan barcha hujjatlar bilan birgalikda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga xorijiy xizmat safar belgilangan kundan 20 kun oldin murojaat qilib kelinmoqda va xizmat safari to'g'risida axborot berilmoqda.</p>
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Apparati Kengashining 2022-yil 4-iyundagi 20-sonli bayoni				
30.	<p>1.2-band. Oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan non mahsulotlarining narxlarida bo'lgan o'zgarishlar yuzasidan doimiy tushuntirish ishlarini olib borsin.</p>	doimiy	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	<p>08.06.2022 yilda kiritilgan universitetning 530-01-sonli buyrug'i asosida ijrochilarga yo'naltirilgan 1.2-band bo'yicha.</p> <p>2022-yilning 6-iyunidan boshlab muntazam ravishda universitet hududidagi barcha tadbirkorlik sub'ektlaridagi mahsulotlar narxlarini solishtirma tahlil qilib borildi va 2022-yil 7-iyundan boshlab yaqin atrofdagi bozor narxlari o'rganilib, holat bo'yicha haftalik ma'lumot kiritib borildi;</p> <p>Asos: Unversititning 2022 8-iyundagi 530-son buyrug'i.</p>

31.	1.3-band. Bir hafta muddatda oliy ta'lim muassasasi hududidagi barcha tadbirkorlik subyektlaridagi mahsulotlar narxlarini solishtirma tahlil qilsin.	11.06.2022-y.	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	1.3-band bo'yicha. Tahlil natijalariga ko'ra oziq-ovqat narxlari barqaror bo'lishini ta'minlash yuzasidan universitet xududidagi oshxonani yurutuvchi tadbirkorlar bilan tushuntirish ishlari olib borildi, oshxona menyulari va narxlar o'rganib chiqildi. Asos: Unversititning 2022 8-iyundagi 530-son buyrug'i.
32.	1.4-band. Tahlil natijalariga ko'ra oziq-ovqat narxlari barqaror bo'lishiga e'tiborni qaratsin hamda zarur hollarda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan mablag' ajratgan holda non mahsulotlari narxidagi farqlarni to'lab berish mexanizmini bir hafta muddatda ishlab chiqsin.	11.06.2022-y.	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	1.4-band bo'yicha Oziq-ovqat narxlari barqaror bo'lishiga e'tiborni qaratgan holda, universitet mas'ul xodimlari tomonidan bozor narxi oshganda tadbirkorlik subyektlariga universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan non mahsulotlari narxidagi farqlarni to'lab berish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Asos: Unversititning 2022 8-iyundagi 530-son buyrug'i.
33.	1.5-band. Bozordagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan zarur mahsulotlar narxlarini har kuni tahlil qilgan holda ommaviy axborot vositalari (OAV) da chiqishlarni amalga oshirsin.	Doimiy	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	1.5-band bo'yicha. Moliya va iqtisod ishlari prorektori tomonidan o'rganish o'tkazilgan va maa'lumotnoma kiritib borilgan.(ilova qilinadi)
34.	1.6-band. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlasin hamda uquv jarayonlari uchun belgilangan me'yor asosida zarur bo'lgan asbob-uskunalar va laboratoriya jihozlarini sotib olish chorasini ko'rsin.	Doimiy	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor S.Toshmatov	1.6-band bo'yicha. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 24-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonuni talablaridan kelib chiqib moddiy-texnik bazani rivojlantirish maqsadida orgtexnika, mebel va boshqa texnika vositalari o'rnatilgan tartibda sotib olish ishlari olib borilmoqda;
35.	1.7-band. Ta'lim muassasalarida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik, yakuniy davlat attestatsiyasi va fanlardan yakuniy imtihonlarni shaffof tarzda o'tkazilishini ta'minlasin.	doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish "KOMPLAENS-NAZORAT" tizimi boshqarish bo'limi boshlig'i M.Umurzoqov	1.7-band bo'yicha. Yakuniy davlat attestatsiyaalir va imtixonlar o'tkazilishi jarayoni, bo'lim xodimlari tomonidan to'liq ravishda nazoratga olindi. Xuquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida xar bir o'quv xonasida videokuzatuv kameralari o'rnatildi.
36.	1.8-band. Professor-o'qituvchilar, xodimlar, yordamchi xodimlar va talabalar orasida korrupsion holatlarni vujudga keltirmaslik maqsadida doimiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish choralari ko'rsin.	doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish "KOMPLAENS-NAZORAT" tizimi boshqarish bo'limi boshlig'i M.Umurzoqov	1.8-band bo'yicha. Yakuniy davlat attestatsiyaalir va imtixonlar o'tkazilishi jarayoni, bo'lim xodimlari tomonidan to'liq ravishda nazoratga olindi. Xuquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida xar bir o'quv xonasida videokuzatuv kameralari o'rnatildi.

37.	1.10-band. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasasida talabalar o'rtasida bo'lib o'tadigan ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarini ko'paytirish hamda yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha kerakli mablag'lar manbalarini ko'rsatgan holda o'n kun muddatda rejasini tasdiqlasin.	14.06.2022-y.	Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor D.Yaxshiboyev	1.10-band bo'yicha. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Universitetda talabalar o'rtasida bo'lib o'tadigan ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarini ko'paytirildi. Sentabr oyi holatiga, universitetda va ularga biriktirilgan mahallalarda turli xil sport turlari bo'yicha tadbirlar o'tkazildi. https://t.me/tuituz_official/9455 https://t.me/tuituz_official/9298 https://t.me/tuituz_official/9148 https://t.me/tuituz_official/9119 Yuqorida keltirilgandek ma'naviy-ma'rifiy hamda sport tadbirlari yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha kerakli mablag'lar manbalarini ko'rsatgan holda rejasini ishlab chiqildi.
38.	1.11-band. Talabalar bandligini ta'minlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha tizimli ishlarni olib borsin.	Doimiy	Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor D.Yaxshiboyev	1.11-band. Talabalar bandligini ta'minlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha tizimli ishlarni olib borilib, universitet Karyera markazi tomonidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda https://t.me/tatu_karvera_markazi ;
